



## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

**Mamadaliyeva Xurshida**

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilar ijodiy fikrlashga, yetakchilikka, o'zaro hamjihatlikda ish yuritishga, g'oyalarini ravon bayon qilishga chorlashi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, ona tili, o'qish savodxonligi, badiiy-estetik dunyoqarash.

Hozirgi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada yuqori mas'uliyat yuklaydi. Sababi bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga oid yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo qilishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi lozim. Bu kabi masalalarda zamonaviy texnologiyalar – fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil qilish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar ko'lamining kengayishi, o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining oshishi, zamonaviy texnologiyalarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil qilish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, o'qituvchidan tinimsiz ravishda o'z ustida ishlash va intellektual salohiyatni talab qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog'lanishni mustahkamlab, ularni umumlashtirib, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qanday usul va vositalardan samarali foydalanishiga bog'liq.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur.



Yana bir e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihat bu ona tili va o'qish savodxonligi darslari davomida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil qilinishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlarini tanlab yuklab olishi zarur. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, vizual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil qilishiga yordam beradi. Bu usul grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyandalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va o'qish savodxonligi» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissiyatini kamol toptirishda «Ona tili va o'qish savodxonligi» darslarining o'рни beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab qilinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tili va o'qish savodxonligi dars jarayonlarini uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi mavzuni tushuntirish hamda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lib, til bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanining chuqur o'zlashtirilishi pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va zamonaviy texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Saidov. Muammoli ko'rgazmalardan foydalanish. " Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2000.
2. Abdullayeva M. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. – T., 2017.
3. Mavlonova, K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganish metodikasi. 2016.





4. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.